

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash bo'yicha qat'iy tartib o'rnatiladi!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-dekabrdagi **"Aholiga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 796-qarori tasdiqlandi.

Mazkur qarorga ko'ra, 2026-yil 1-iyuldan boshlab, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi miqdorini hisoblashda sug'urta stajiga mutanosib ravishda o'rtacha oylik ish haqiga quyidagi staj koeffitsiyenti qo'llaniladi:

. olti oydan to'qson olti oygacha (to'qson oltinchi oy ham kiradi) sug'urta stajiga ega bo'lganda – 60 foiz;

. to'qson yetti va undan ortiq oy sug'urta stajiga ega bo'lganda – 80 foiz.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lanmaydi:

. ish haqi saqlanmagan ta'til;

. ish haqi qisman saqlanadigan ta'til;

. bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;

. harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;

. ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan o'quv ta'tili vaqtida.

Ushbu davrlardan boshlanib davom etayotgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi sug'urtalangan shaxs ishga chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa miqdorini hisoblashda sug'urtalangan shaxsning sug'urta stajiga mutanosib ravishda o'rtacha oylik ish haqiga quyidagi staj koeffitsiyenti qo'llaniladi:

. o'n oydan yigirma to'rt oygacha (yigirma to'rtinchi oy ham kiradi) sug'urta stajiga ega bo'lganda – 75 foiz;

. yigirma besh oydan oltmish oygacha (oltmishinchi oy ham kiradi) sug'urta stajiga ega bo'lganda – 85 foiz;

. oltmish bir va undan ortiq oy sug'urta stajiga ega bo'lganda – 100 foiz.